

MODAL SO‘ZLARNING BOSHQA SO‘Z TURKUMLARI BILAN MUNOSABATI

Yuldashov Norqobil

O‘zJDTU xalqaro jurnalistika fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada modal so‘zlar haqida so‘z yuritilgan. Modal so‘zlarning boshqa so‘z turkumlari, jumladan: ot, sifat, ravish, son, fe‘l va boshqalar bilan munosabati atroflicha tadqiq qilingan. Semantik xususiyatlariga to‘xtalangan va misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: modal so‘z, ot, sifat, son, ravish, fe‘l, semantika.

Abstract: this article is about modal words. The relationship of modal words with other word groups, including nouns, adjectives, adverbs, numbers, verbs, etc., has been thoroughly studied. Semantic features are discussed and examples are given.

Key words: modal word, noun, adjective, number, adverb, verb, semantics.

Modal so‘zlar asosan quyidagi so‘z turkumlaridan o‘sib chiqqandir:

1. Ot turkumidan. Bular modal so‘zlarning asosiy qismini tashkil etadi. Bunday modal so‘zlar;

1) o‘zakka teng bo‘ladi: **ehtimol** kabi;

2) aslida kelishik formasidagi (arab tushum kelishigi formasidagi) so‘z bo‘lib, o‘zbek tili nuqtayi nazaridan o‘zak deb qaraladi: **haqiqatan, voqeankabi**;

3) aslida old ko‘makchi bilan birga kelgan so‘z bo‘lib, o‘zbek tili nuqtayi nazaridan o‘zak deb qaraladi: **darhaqiqat** kabi. Bu so‘zdagi **dar** elementi o‘zbekcha o‘rin-payt kelishigiga to‘g‘ri keladi.

4) negizga teng bo‘ladi. Bunday hollarda o‘zak –**siz** yoki –**liaffiksi** bilan birga keladi: **shubhasiz, so‘zsiz, shekilli** kabi;

5) aslida o‘zak va turlovchi affikslardan tuzilgan bo‘ladi:

a) o‘zak va egalik affiksidan tuzilgan bo‘ladi: **chog‘I, asli, mazmuni** kabi. Bunday modal so‘zlar tarkibidagi egalik affikslari o‘z Grammatik mohiyatini yo‘qotgan. Shunga ko‘ra bu o‘rindagi affiksni turlovchi deb bo‘lmaydi, chunki u endi so‘zlarning formal qismiga emas, balki material qismiga o‘tib ketgandir;

b) o‘zak va o‘rin-payt kelishigi affiksidan tuzilgan bo‘ladi: **haqiqatda** kabi. Modal so‘zlar tarkibidagi kelishik affikslari ham so‘zning material qismiga o‘tib ketgan va shu tufayli bunday affikslar kelishik sistemasidan uzilib qolgandir;

v) o‘zak va egalik hamda kelishik affikslaridan tuzilgan bo‘ladi. Bunday hollarda o‘zakka egalik affikslaridan uchinchi shaxs formasi hamda o‘rin-payt yoki chiqish kelishigi formasi qo‘shilib keladi: **aslida**, **aftidan** kabi. Bunday modal so‘zlar ham bu affikslar o‘z grammatik mohiyatini yo‘qotgandir.

2. Otdan boshqa so‘z turkumlaridan o‘sib chiqqan modal so‘zlar:

1) sifatdan o‘sib chiqqan modal so‘z: **tabiiy** kabi;

2) ravishdan o‘sib chiqqan modal so‘z: **albatta** kabi;

3) fe‘ldan o‘sib chiqqan modal so‘z: **xoyna-xoy**. Bu modal so‘z aslida tojikcha **xoh** fe‘lining bo‘lishli va bo‘lishsiz formalaridan hosil bo‘lgandir. (P. Сайфуллаева ва б. Ҳозирги Ўзбек адабий тили.2009, 73-бет)

Modal so‘zlar ot, sifat, ravish, fe‘l kabi mustaqil so‘z turkumlariga, shuningdek yordamchi so‘zlarga ham o‘xshab ketadi. Shunga qaramay modal so‘zlar mustaqil so‘z turkumlariga ham kiritilmaydi, yordamchi so‘z ham sanalmaydi. Modal so‘zlar o‘z mohiyatiga ko‘ra tiplarning alohida bir gruppasini tashkil etadi. Nominativlik (nimanidir atash) funksiyasi modal so‘zlarga xos emas.

Shavkat Rahmatullayev esa modal so‘zlarning so‘z turkumlarida o‘sib chiqishini quyidagicha tasniflaydi:

1. Ot leksema shakldan o‘sib chiqqan; modallarning ko‘pchilik qismini shular tashkil qiladi. Bunda modal:

1) Tub leksemashaklga teng deb qaraladi: *ehtimol* kabi;

2) Asli arabcha leksemaning tushum kelishigi shakliga teng bo‘lib, o‘zbek tili nuqtayi nazaridan tub deb qaraladi: *haqiqatan* (*haqiqat + an*) kabi;

3) Asli predlog va leksemadan iborat bo‘lib, o‘zbek tili nuqtayi nazaridan tub deb qaraladi: *darhaqiqat* (tojikcha *dar* predlogi va arab tilidan o‘zlashgan *haqiqat* leksemasidan iborat bo‘lib, tojik tilida analitik Grammatik shakli leksemashakl sifatida *dar haqiqat* tarzida ajratib yoziladi), *darvoqe* (bu modal ham xuddi shunday tuzilgan: tojikcha *dar* predlogi + arabcha *voqe’ = dar voqe’ – haqiqatda*) kabi. Arxaik *filhaqiqat* modali esa arabcha *fi* predlogi, *al* aniqlik artikli va *haqiqat(un)* leksemasidan tuzilgan: *fi al haqiqat ,filhaqiqat*;

4) asli “ot leksema + atributiv shakl yasovchi “ tarkibiga ega leksemashakldan o‘sib chiqqan va ma’noli qismlarga ajratilmaydigan bo‘lgan: *shubha + siz = shubhasiz*; *shakl + li shekilli* kabi (keying misolda kelgan *kl* tovushlarini talaffuz qilish qiyin bo‘lgani sababli *kl* tovushlari oralig‘iga *l* tovushi kiritilgan) ;

5) asli leksema va shakl hosil qiladigan morfemadan tuzilgan bo‘lib, modal turkum birligi sifatida o‘sib chiqqan, shakl hosil qiladigan morfemalar o‘z Grammatik mohiyatini yo‘qotgan, ajratilmaydigan bo‘lgan. Bunday modallar asli:

a) "leksema + birlik sonlovchisi + III shaxs nisbatlovchisi + bosh kelishik ko'rsatkichi" tarkibiga ega bo'lgan: $\text{chama} + \text{si} + \text{II} = \text{chamasi}$, $\text{mazmun} + \text{I} + \text{II} = \text{mazmuni}$ kabi; b) "leksema + birlik sonlovchisi + o'rin yoki chiqish kelishigi affiksi" tarkibiga ega bo'lgan: $\text{haqiqat} + \text{I} + \text{da} = \text{haqiqatda}$, $\text{rost} + \text{I} + \text{dan} = \text{rostdan}$ kabi (Keyingi modal ko'pincha *rostdan ham* shaklida yuklama bilan ishlatiladi); d) "leksema + birlik sonlovchisi + III shaxs nisbatlovchisi + o'rin yoki chiqish kelishigi affiksi" tarkibiga ega bo'lgan: $\text{asl} + \text{I} + \text{da} = \text{aslida}$, $\text{aft} + \text{I} + \text{dan} = \text{aftidan}$ kabi. 2. Otdan boshqa turkum leksemashakllaridan o'sib chiqqan: 1) Sifat leksemashakldan o'sib chiqqan: *tabiiy* kabi; 2) Ravish leksemashakldan o'sib chiqqan: *albatta* kabi; 3) Tojikcha *xoh-noxoh* fe'l shaklidan o'sib chiqqan; bunda *xoh* – 'ista', *no* - '-ma'; *xoh-noxoh* - 'ista-istama'; o'zbek tilida har ikki qism oxiridagi *h* tovushi *y* tovushiga, ikkinchi qismdagi birinchi *o* tovushi *a* tovushiga almashgan: *xoh-noxoh* *xoynaxoy*; *ma'noda* ham jiddiy o'zgarish yuz bergan: 'ista-istama' 'tusmol'; 4) Bog'lovchidan o'sib chiqqan: *balki*. 3. Birikmashakl hokim a'zosining ellipslanishi (tushirilishi) natijasida yuzaga kelgan: *o'z-o'zidan* aniq *o'z-o'zidan* kabi. 4. Birikmashaklning modalga aylanishi bilan yuzaga kelgan: *har qalay*, *har holda* kabi. (Shavkat Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Universitet, 2006, 67-bet)

Biror turkum birligi asosida modal birlik o'sib chiqqan bo'lsa, bunday hollarda odatda omonimiya voqe bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. P. Сайфуллаева ва б. Ҳозирги Ўзбек адабий тили -Тошкент-2009
2. Shavkat Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: Universitet, 2006
3. Zikrullayev G'. O'zbek tili morfologiyasi. –Buxoro. 1994.
4. G'ulomov. A, Asqarova. M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1965.
5. Hozirgi zamon o'zbek tili. –Toshkent: 1957
6. O'zbek tili grammatikasi I jild. –Toshkent: FAN, 1975.
7. Mirtojdiyev M. Hozirgi o'zbek adabiy tili I jild. –Toshkent, 2004.